

FILOLOGIK TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KOGNITIV VA KOMMUNIKATIV STRATEGIYALAR INTEGRATSIYASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

¹Xodjamqulov U. N., ²Pardayeva U. N.

¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy

²Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Temiryo'lchilar ko'chasi 1-uy

KIRISH. Hozirgi zamonda filolog mutaxassis tayyorlash tizimiga qo'yiladigan talablar sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Global mehnat bozori faqat lingvistik bilimga emas, balki bilimni ijodiy qo'llay oladigan, tanqidiy fikr yurita oladigan va samarali muloqot qila oladigan kadrga muhtoj. Aynan shu nuqtada nutqiy va tafakkur kompetensiyalarining uzviy birligi filologik ta'limning eng muhim vazifasi sifatida namoyon bo'ladi.

An'anaviy filologik ta'lim modeli, asosan, lingvistik bilimning reproduktiv uzatilishiga, ya'ni o'qituvchidan talabaga tayyor ma'lumotlar berishiga tayanib kelgan. Ushbu yondashuv talabada tizimli bilim hosil qilsa-da, bilimni erkin diskursda qo'llash, yangi muammolarni tahlil qilish va muqobil yechimlarni ishlab chiqish kabi oliy darajali tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishda etarlicha samarali emasligini ko'plab tadqiqotlar ko'rsatmoqda [1], [2]. Muammoning mohiyati shundaki, nutq bilan tafakkur bir-biridan ajratib o'rgatilmaydi, aksincha, ular bir jarayonning ikki qirrasini tashkil etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak filolog mutaxassislarning nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: nutqiy va tafakkur kompetensiyalari tushunchalarini oydinlashtirish; asosiy zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish; ularning filologik ta'lim amaliyotiga tatbiq etish modellarini ko'rsatish; mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Asosiy tushunchalarni aniqlash zarur. Nutqiy kompetensiya deb tilni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, erkin, ijtimoiy kontekstga muvofiq va ifodali qo'llash qobiliyatiga aytiladi. U grammatik to'g'rilik bilan chegaralanib qolmasdan, diskursiv izchillik, pragmatik muvofiqlik va uslubiy sezgirlikni ham o'z ichiga oladi [3, 342]. Tafakkur kompetensiyasi esa axborotni tahlil qilish, baholash, qiyoslash, mantiqiy xulosa chiqarish va muammolarni yechish qobiliyatlarining birligi sifatida ta'riflanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuv deganda talabani ta'lim jarayonining markaziga qo'yadigan, faol bilim qurishni rag'batlantiradigan va kompetensiyaviy natijaga yo'naltirilgan metodologik tizim tushuniladi. Ushbu tadqiqotning ilmiy farazi quyidagicha: bo'lajak filolog mutaxassislarning ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar tizimli va maqsadli tatbiq etilsa, nutqiy va tafakkur kompetensiyalari bir vaqtning o'zida va o'zaro ta'sir asosida rivojlanadi, bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun talab qilinadigan yuksak darajali kompetentlikni ta'minlaydi.

NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR. Nutqiy kompetensiya tushunchasi zamonaviy lingvodidaktikada ko'p qirrali kategoriya sifatida qaralib, u bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Canale va Swain (1980) tomonidan taklif etilgan va keng e'tirof tilgan model kommunikativ kompetentlikning to'rt darajasini ajratib ko'rsatadi: grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik [4]. Ushbu model filologik ta'lim nuqtai nazaridan ayniqsa muhimdir, chunki filolog mutaxassis barcha to'rt darajada yuksak malaka talab etadigan kasbiy muloqot turlarida faoliyat ko'rsatadi. Filolog uchun nutqiy kompetensiyaning kasbiy ahamiyati umuman o'qitish va aloqa kasblaridan farq qiladi. Filolog ilmiy matnlarni sharhlashi, adabiy asarlarni tahlil qilishi, lingvistik argumentlarni asoslashi va bu faoliyatlarni professional diskurs shaklida bayon etishi talab etiladi. Demak, nutqiy kompetensiya bu holda passiv til bilimi emas, balki aktiv va ijodiy til qo'llash qobiliyatidir. Bu qobiliyat esa faqat tizimli mashq va kommunikativ muhitda rivojlanishi mumkin [5]. O'zbekiston kontekstida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning dolzarbligi ayniqsa katta. Mahalliy tadqiqotlar ko'rsatishicha, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishidagi talabalar grammatik bilim darajasida yuqori natija ko'rsatsa-da, ilmiy diskurs, argumentativ nutq va ijodiy yozuvda sezilarli kamchiliklar mavjud [7]. Bu esa ta'lim jarayonida nutqiy kompetensiyaning faqat lingvistik emas, balki kommunikativ va diskursiv jihatlarini ham rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Tafakkur kompetensiyasi zamonaviy ta'limshunos olimlar tomonidan turli jihatlardan tasniflashtirilgan. Ayniqsa, L.Anderson, va boshqalar tomonidan qayta ishlangan Bum taksonomiyasi tafakkurning oltita iyerarxik darajasini belgilaydi [2]. Filologik ta'lim uchun ayniqsa muhim bo'lgan darajalar, ya'ni tahlil, baholash va yaratish, oliy darajali tafakkur (*Higher Order Thinking Skills*, HOTS) deb ataladi va bu darajalar ta'lim jarayonida maqsadli ravishda rivojlantirilishi lozim. R.Paul va L.Elder tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy tafakkur tizimi esa tafakkurning sakkiz elementi, ya'ni maqsad, savol, axborot, xulosa, tushuncha, taxmin, nuqtai nazar va oqibatni ajratib ko'rsatgan [6]. Ushbu elementlarni filologik vazifalar bilan bog'lash juda samarali natija beradi. Masalan, adabiy asarni tahlil qilishda talaba muallif maqsadini, asardagi asosiy savolni, foydalanilgan badiiy vositalarni va asarning ijtimoiy oqibatlarini bir vaqtda ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Tafakkur va nutq o'rtasidagi munosabat L.Vygotskiyning klassik asarida chuqur tahlil qilingan. Uning fikricha, so'z ma'nosi tafakkur va nutqning birlashgan nuqtasida joylashgan bo'lib, nutq faqat tayyor fikrni ifodalamaydi, balki fikrning o'zini shakllantirishda qatnashadi [1]. Bu nazariy asos filologik ta'lim uchun fundamental ahamiyat kasb etadi: talaba nutq orqali fikrlashni, fikrlash orqali esa yaxshiroq nutq qurishni o'rganadi. Shu sababdan, ushbu ikki kompetensiyani alohida-alohida rivojlantirish mumkin emas va mumkin bo'lmashligi ham kerak.

Nutqiy va tafakkur kompetensiyalarining parallel va integratsiyalashgan rivojlanishi haqidagi zamonaviy tadqiqotlar ushbu ikki kompetensiyaning bir-birini to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi tabiatini tasdiqlaydi. Bir tomondan, yuqori darajada rivojlangan tafakkur kompetensiyasi nutqning sifatini oshiradi: mantiqiy tuzilgan fikr to'g'ri, izchil va ta'sirli nutq shaklida ifodalanadi. Boshqa tomondan, nutqiy faoliyat tafakkurni chuqurlashtiradi: o'z fikrlarini boshqalarga

tushuntirish va muloqotda himoya qilish talabi tafakkurni yanada aniq va tizimli qilishga majbur etadi [8]. Ushbu o'zaro aloqaning didaktik natijasi quyidagicha: filologik ta'limda har qanday pedagog yondashuv nutqiy faoliyat imkoniyatlarini ta'minlash bilan birga tafakkurni chaqiradigan vazifalar tizimini ham o'z ichiga olishi kerak. Faqat nutqqa yoki faqat tahlilga qaratilgan bir tomonlama ta'lim modeli bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatga to'liq tayyorlay olmaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlili. Tanqidiy tafakkurga asoslangan ta'lim yondashuvi ta'lim jarayonida talabani argumentlashtirilgan fikr yuritishga undashni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Bu yondashuvning asosiy vositalaridan biri, Sokrat metodi yoki so'roq yo'li orqali o'qitish, filologik ta'limda nihoyatda samarali ekanligi isbotlangan. O'qituvchi to'g'ri javobni bermaydi, aksincha, talabaga savol qo'yadi: "Bu asardagi bosh qahramon nima uchun bunday qaror qabul qildi?", "Muallif ushbu uslubiy vositadan nima maqsadda foydalangan?", "Siz bu talqinga qo'shilasizmi, nima uchun?" Blum taksonomiyasi asosida filologik ta'limni loyihalash oliy darajali tafakkur ko'nikmalarini maqsadli rivojlantirishga imkon beradi. Z.Nurmatova va M.Altun o'tkazgan tadqiqot taksonomiyaning chet tilini o'qitishda to'liq qo'llanilishi faqat past darajali kognitiv ko'nikmalardan (eslab qolish, tushunish) oliy darajali ko'nikmalarga (tahlil, baholash, yaratish) o'tish imkonini berishini va bu o'tish tilni aktiv ishlatish ko'nikmalarini sezilarli yaxshilashini ko'rsatdi [9]. Filologik ta'limda bu qonuniyat yana ham kuchli namoyon bo'ladi, chunki adabiy asar bilan ishlash o'z mohiyatiga ko'ra ko'p darajali tafakkurni talab etadi. Amaliyotda bu yondashuv argumentatsion yozma topshiriqlar, "*devil's advocate*" usulida muammo ko'tarish va o'zaro tanqidiy baholash (*peer review*) ko'rinishida tatbiq etiladi. Talaba o'z fikrini nafaqat ifodalaydi, balki uni asoslaydi, muqobil fikrlarni ko'rib chiqadi va xulosa chiqaradi. Bu esa nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini bir vaqtning o'zida rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim yondashuvi talabaga haqiqiy yoki simulyatsion muammo qo'yishga, talabani esa uning yechimini mustaqil izlashga yo'naltirishga asoslanadi. Bu yondashuv dastlab tibbiyot ta'limida qo'llanilgan bo'lsa, keyingi o'n yilliklarda gumanitar fanlar, jumladan, filologiya ta'limida ham keng tatbiq etila boshlagandir. Filologik ta'limda muammoli ta'limning namunali vazifalari quyidagilar bo'lishi mumkin: "Ushbu adabiy asarning muallifi nomallum. Matn tili va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilib, muallifni aniqlashga harakat qiling"; "Bu tarjima aslyatga qanchalik mos? Qaysi o'rinlarda ma'no yo'qolgan va nima uchun?"; "Ushbu lingvistik hodisani ikki nazariya nuqtai nazaridan izohlang va qaysi nazariya ko'proq ishonchli ekanligini asoslang". Bunday vazifalar talabani faol izlanishga, manba tahlil qilishga va nutqiy shaklda xulosa chiqarishga undaydi. O'qituvchi PBL jarayonida fasilitator sifatida ishlaydi: muammoni qo'yadi, yo'naltiruvchi savollar beradi, lekin tayyor yechim taklif qilmaydi. Bu holat talabada intellektual mas'uliyat hissini uyg'otadi va o'z-o'zini tartibga solish (*self-regulation*) ko'nikmalarini mustahkamlaydi [8]. Hamkorlikda ta'lim yondashuvi talabalarning kichik guruhlarda bir-birini o'rgatish tamoyiliga asoslanadi. Robert Slavin o'tkazgan keng qamrovli tadqiqot kooperativ ta'lim metodlarining akademik yutuqqa ta'sirini tahlil qilib, 52 ta mustaqil tadqiqotdan 63 foizida hamkorlikda ta'lim an'anaviy ta'limga nisbatan sezilarli darajada yuqori natija berganini aniqladi [10].

Filologik ta'limda kooperativ ta'limning quyidagi shakllari ayniqsa samarali hisoblanadi. Birinchidan, "Jigsaw" metodi: har bir talabaga adabiy asarning yoki lingvistik mavzuning bir bo'limi beriladi va u o'z guruhiga o'rgatishi kerak. Bu ham o'rganish, ham o'rgatish jarayonida nutqiy kompetensiyani rivojlantiradi. Ikkinchidan, "Think-Pair-Share" texnikasi: talaba avvalo mustaqil o'ylaydi, keyin juftlikda muhokama qiladi, nihoyat sinfga taqdim etadi. Bu uch bosqich tafakkurdan nutqqa ko'prikning eng samarali shakllaridan biridir. Uchinchidan, debat va munozara: muayyan filologik masala yuzasidan guruhlar taraf tutib bahslashadi, bu esa argumentatsiya va nutqiy ta'sir ko'nikmalarini keskin yuksaltiradi. Dialogik pedagogikaning nazariy asosi ham Vygotskiy ta'limotiga borib taqaladi: bilim ijtimoiy muloqot jarayonida, ya'ni dialog orqali tashkil topadi. Filologik ta'limda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi haqiqiy intellektual dialog faqat o'qituvchi hukmronligidagi an'anaviy "savol-javob" o'rni o'zaro fikr almashuv sifatida tuzilishi lozim.

Loyihaviy ta'lim yondashuvi talabani haqiqiy hayotga yaqin muammoni hal etish uchun uzoq muddatli loyiha ustida ishlashga jalb etadi. Bu yondashuv filologik ta'limda ayniqsa boy imkoniyatlar yaratadi: adabiy tadqiqot loyihasi, matn korpusini yaratish, og'zaki tarix loyihasi, dialekt yoki uslub tahlili kabi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin. Loyiha jarayoni o'z tabiatiga ko'ra nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini birgalikda rivojlantiradi. Talaba loyihani rejalashtirganda analitik tafakkurdan, izlanganda tanqidiy tafakkurdan, taqdim etganda esa nutqiy kompetensiyasining barcha darajalaridan foydalanadi. *Portfolio* yondashuvi bilan birgalikda loyihaviy ta'lim talabada o'z rivojlanishini kuzatish va baholash qobiliyatini, ya'ni refleksiv tafakkurni ham shakllantiradi.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy filologik ta'limda nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirishning yangi platformalarini taqdim etmoqda. Podcast va vlog formatida matn tahlili tayyorlash, ilmiy bloglarda argumentativ yozuv mashq qilish, virtual muhitda debatlar o'tkazish kabi usullar talabada an'anaviy dars sharoitida hosil bo'lmaydigan kommunikativ motivatsiya uyg'otadi. Shu bilan birga, raqamli vositalar, jumladan, sun'iy intellekt bilan ishlash, yangi tanqidiy tafakkur vazifasini ham yaratmoqda: talaba SI taqdim etgan matnni tahlil qilishi, uning mantiqiy kamchiliklarini aniqlashi va o'z pozitsiyasini asoslashi kerak bo'ladi. Bu holat nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy va dolzarb formatini tashkil etadi.

Amaliy tatbiq: Bo'lajak filolog tayyorlashda model. Nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini integratsiyalashgan tarzda rivojlantirishga mo'ljallangan dars quyidagi uch bosqichdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq:

Birinchi bosqich: **Kognitiv kirish (10-15 daqiqa).** Talaba yangi matn yoki muammoni mustaqil tahlil qiladi, klaster yoki kontsept-xarita tuzadi, asosiy savol va argumentlar ro'yxatini tuzadi. Bu bosqich Blum taksonomiyasining quyi darajalarini faollashtiradi va keyingi kommunikativ faoliyat uchun intellektual material to'playdi.

Ikkinchi bosqich: **Kommunikativ o'zlashtirish (20-25 daqiqa)**. Juftlikda yoki kichik guruhda o'z tahlilini og'zaki ifodalaydi, tengdoshlar fikrlariga munosabat bildiradi, muqobil nuqtai nazarlarni ko'rib chiqadi. Bu bosqich Blum taksonomiyasining o'rta darajalarini, ya'ni qo'llash va tahlilni amalga oshiradi.

Uchinchi bosqich: **Ijodiy chiqish (15-20 daqiqa)**. Umumiy muhokama, sinfga taqdimot, qisqa yozma xulosalar yoki mini-debat shaklida talabalar o'z yakuniy pozitsiyalarini ifodalaydi. Bu bosqich baholash va yaratish darajalarida ishlashni ta'minlaydi va nutqiy kompetensiyaning oliy darajalarini namoyon etadi.

Quyida nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini birgalikda baholash uchun tavsiya etiladigan rubrika jadval ko'rinishida berilgan (1-jadval):

1-jadval. Nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini birgalikda baholash

Kompetensiya	Yuqori daraja (5)	O'rta daraja (3)	Past daraja (1)
Nutqiy aniqlik	Fikr to'liq, izchil va ta'sirchan ifodalangan	Asosiy fikr tushuniladi, ammo kam izchil	Fikr noaniq yoki tushunib bo'lmaydi
Argumentatsiya	Dalillar kuchli, mantiqiy va turli-tuman	Dalillar mavjud, lekin yetarli emas	Dalillar zaiif yoki yo'q
Tanqidiy tafakkur	Muqobil nuqtai nazarlar ko'rib chiqilgan	Bir tomonlama tahlil qilingan	Tahlil yetarlicha chuqur emas
Nutq madaniyati	Terminologiya to'g'ri, uslub muvofiq	Ba'zi terminologik xatolar mavjud	Ko'p terminologik xatolar

Respublikamiz oliy ta'lim tizimidagi filologiya yo'nalishlarida ushbu yondashuvlarni tatbiq etish bir qator o'ziga xos sharoitlarni hisobga olishni talab etadi. Birinchidan, **o'quv yuklamasi va vaqtni boshqarish**: zamonaviy yondashuvlar ko'proq vaqt talab qilganligi sababli, ularni qisman amaliyot va seminar darslarga ko'chirish, nazariy kurslarni esa muammoli savol-javob usulida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, **o'qituvchilarni qayta tayyorlash**: zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'qituvchidan yangi rol va yangi metodologik kompetentlikni talab etadi. Malaka oshirish kurslarida fasilitatorlik texnikalari, tanqidiy tafakkur dasturlari va formativ baholash usullarini o'rgatish zarur.

Uchinchidan, **davlat ta'lim standartlari bilan integratsiya**: zamonaviy yondashuvlarni joriy etish mavjud kompetensiyaviy talablar bilan ziddiyatga kirmasligi, balki ularni boyitishi lozim. O'quv dasturlariga tanqidiy tafakkur va kommunikativ kompetensiya rivojlantiruvchi topshiriqlar blokларini qo'shish qisqa muddatda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan amaliy qadam hisoblanadi.

XULOSA. Ushbu maqolada bo'lajak filolog mutaxassislarning nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari keng yoritildi. Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga keldi. **Birinchidan**, nutqiy va tafakkur kompetensiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni birgalikda va integratsiyalashgan tarzda rivojlantirish zamonaviy filologik ta'limning asosiy vazifasi hisoblanadi. Vygotskiyning nutq va tafakkur munosabatiga doir nazariy asosi bu integratsiyaning psixologik zarurligini dalillaydi. **Ikkinchidan**, tanqidiy tafakkurga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, kooperativ ta'lim va loyihaviy ta'lim yondashuvlari, har biri o'ziga xos tarzda, nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini birgalikda rivojlantirish uchun samarali metodologik vositalarni taqdim etadi. **Uchinchidan**, ushbu yondashuvlarning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining metodologik kompetentligiga va baholash tizimining maqsadga muvofiqligi hamda xilma-xilligiga bog'liq. An'anaviy standartlashtirilgan baholash ko'pincha faqat quyi darajali bilimlarni o'ldiraydi va natijada o'qituvchi ham, talaba ham aynan shu darajada ishlashga yo'naltiriladi. Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar ilgari suriladi: filologiya yo'nalishlarida dars tuzilmasi uch bosqichlilik, ya'ni kognitiv kirish, kommunikativ o'zlashtirish va ijodiy chiqish tamoyilida qayta qurilishi; baholash tizimiga rubrika asosidagi formativ baholash joriy etilishi; o'qituvchilar malaka oshirishida fasilitatorlik kompetensiyasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

ADABIYOTLAR

- Vygotsky L.S. Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press, 1986. 287 b.
- Anderson L.W., Krathwohl D.R. et al. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 2001. 352 b.
- Oxford R.L. Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. New York: Newbury House Publishers, 1990.
- Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. 1980. Vol. I. No. 1. B. 1–47.
- O'Malley J.M., Chamot A.U. Learning Strategies in Second Language Acquisition. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. 260 b.
- Paul R., Elder L. Critical Thinking: Learn the Tools the Best Thinkers Use. New Jersey: Pearson Prentice Hall, 2006. 68 b.
- Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 b.
- González-Velázquez L. Cognitive and Affective Processes in Second Language Oral Communication: A Mixed Methods Research // Frontiers in Education. 2025. Vol. 10.
- Nurmatova Z., Altun M. A Comprehensive Review of Bloom's Taxonomy Integration to Enhancing Novice EFL Educators' Pedagogical Impact // Arab World English Journal. 2023. Vol. 14. No. 3. B. 380–388.
- Slavin R.E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. 2nd ed. Boston: Allyn and Bacon, 1995. 173 b.
- Djuraeva D. Filologiya ta'limida analitik fikrlash va qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish // Open Journal of Education. 2024.
- Hakimov B.S. O'qituvchi nutqining rivojlanish mexanizmlari // O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. 2025.
- Axmedov H.U. Ingliz tili darslarida muloqot faoliyatini cheklovchi pedagogik omillar // ResearchGate. 2025.

14. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 192 b.

Filologik ta'lim samaradorligini oshirishda kognitiv va kommunikativ strategiyalar integratsiyasining didaktik imkoniyatlari

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak filolog mutaxassislarining nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinib, tanqidiy tafakkurga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, kooperativ ta'lim va loyihaviy ta'lim kabi zamonaviy yondashuvlarning nazariy asoslari va ularning filologik ta'lim amaliyotiga tatbiqi keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, tafakkur kompetensiyasi, tanqidiy tafakkur, kooperativ ta'lim, muammoli ta'lim.

Дидактические возможности интеграции когнитивных и коммуникативных стратегий в повышении эффективности филологического образования

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение современных педагогических подходов в формировании и развитии речевых и мыслительных компетенций будущих специалистов-филологов, широко освещаются теоретические основы таких современных подходов, как обучение, основанное на критическом мышлении, проблемное обучение, кооперативное обучение и проектное обучение, а также их применение в практике филологического образования.

Ключевые слова: речевая компетенция, мыслительная компетенция, критическое мышление, кооперативное обучение, проблемное обучение.

Didactic opportunities of integrating cognitive and communicative strategies in improving the efficiency of philological education

Abstract. This article analyzes the role and importance of modern pedagogical approaches in the formation and development of speech and thinking competencies of future philological specialists, extensively covering the theoretical foundations of modern approaches such as critical thinking-based education, problem-based education, cooperative education, and project-based education, as well as their application in the practice of philological education.

Key words: speech competence, thinking competence, critical thinking, cooperative education, problem-based education.
